

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining “Energetika  
va mashinasozlik fakul’teti ” binosini joriy ta’mir qilish bo‘yicha  
**ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO‘YICHA XARID QILISH  
HUJJATI**

## MUNDARIJA

- I. Bob. Ishtirokchiga ko'rsatma
- II. Bob. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari
- III. Bob. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini tayyorlanishi
- IV. Bob. Etkazib beriladigan mahsulotlarga va ko'rsatiladigan ishlarga narx va texnik talablar
- V. Bob. Tanlash taklifining topshirilishi va ochilishi
- VI. Bob. Tanlash takliflarini g'oliblarni aniqlash tartibi
- VII. Bob. Shartnoma namunasi

## **I. ISHTIROKCHIGA KO'RSATMA**

### **I. Umumiy ma'lumot**

Eng yaxshi takliflarni tanlashning predmeti

Mazkur eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarida ishlatiladigan tushunchalar

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid komissiyasining vazifalari

Texnik va tijorat takliflarini baholash guruhining vazifalari

Ishtirokchiga eng yaxshi takliflarni tanlashda qatnashish uchun qo'yiladigan malaka talablari

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash

### **II. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari**

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatining tarkibi

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga aniqlik kiritish

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

### **III. Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarini tayyorlanishi**

Eng yaxshi takliflarni tanlashda qatnashish xarajatlari

Eng yaxshi takliflarni tanlashda qo'llaniladigan til

Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar

Taklif shakli va narx jadvali shakllari bo'yicha tushuntirish

Muqobil takliflar

Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifini rasmiylashtirish va imzolash

### **IV. Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifining topshirilishi va ochilishi**

Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini muhrlash va konvertlarni belgilash

Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini topshirishning oxirgi muddati

Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarining ochilishi

### **V. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi**

Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash

Takliflarning mos kelmasligi

### **VI. Shartnomani rasmiylashtirish**

Shartnomani rasmiylashtirish

Eng yaxshi takliflarni tanlash shartlari

Shartnomani imzolash

## **UMUMIY MA'LUMOTLAR**

### **1. Eng yaxshi takliflarni tanlash predmeti**

Eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid komissiyasi (bundan buyon matnda xarid komissiya deb yuritiladi) o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 3016, 26.05.2018 y.) asosan amalga oshiradi.

Eng yaxshi takliflarni tanlashni tashkil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining Toshkent shahar, Uchtepa tumanida joylashgan binosininig tom qismini kapital ta'mirlash.

**Ishlarning maksimal narxi: QQS bilan 227 529 616 so'm.**

Ishlar uchun eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlarining tijorat qismida joylashgan talablariga binoan xizmat ko'rsatishi shart.

**Ishlar (xizmat)ning bajarish muddati: 20 ish kuni ichida.**

## **2. Mazkur tanlash hujjatlarida ishlatiladigan tushunchalar**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining Toshkent shahar, Uchtepa tumanida joylashgan binosininig tom qismini kapital ta'mirlash bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari (keyingi o'rinlarda matnda - Tanlash hujjatlari) talablari asosida tashkilotni aniqlash.

Tanlash o'tkazish tartibi - bir bosqichli.

Buyurtmachi - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali;

Manzili: Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Sayilgox 35

Tanlashni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs – bosh muhandis I.Rahmatullayev;

Tel.: (93) 106-08-03

Xarid komissiyasining vazifalari:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo'lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta'minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlashini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlashi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

xarid qilish tartib-taomillarini "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunga muvofiq amalga oshiradi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

## **3. Texnik va tijorat takliflarni baholashda xarid komissiyasining vazifalari:**

ishtirokchilarning tanlashga taqdim etilgan moliyaviy hujjatlarini va narx takliflarini o'rganadi, tahlil qiladi va ko'rib chiqadi;

eng yaxshi tanlash narx taklifini aniqlaydi va qaror qabul qiladi.

Ishtirokchi - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, eng yaxshi takliflarni tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari talablarida ko'rsatilgan ishlarni ko'rsatish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan tashkilotlar.

Ishtirokchi:

taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliigi va to'g'riligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;

faqat Tanlash hujjatlari talablariga muvofiq bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;

taqdim etilgan taklifni taqdim etish muddati tugamaguncha qaytarib olish yoki

o'zgartirish huquqiga ega.

#### **4. Ishtirokchiga tanlashda qatnashish uchun qo'yiladigan talablari**

4.1. Tanlash takliflarini tayyorlaydi va xarid komissiyasiga taqdim etadi. Ularning faoliyatini baholash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni taqdim etadi (Xarid komissiyasining so'roviga ko'ra).

4.2. Ishtirokchi Xarid komissiyasiga muhrlangan konvertni yo'llanma xat bilan taqdim qilgan bo'lishlari kerak.

##### **Ochiq holda berilayotgan hujjatlarga oid talablar:**

a) Yo'llanma xat (сопроводительное письмо). Yo'llanma xatida ishtirokchining STIR (INN) raqami ko'rsatilgan bo'lishi va quyidagi hujjatlar ilova qilinishi zarur;

b) soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot;

v) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 5 fevraldagi 55-son qarori bilan tasdiqlangan Qurilish sohasida tanlovlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning reyting ko'rsatkichlariga muvofiq yuqorida ko'rsatilgan kapital tamirlash xizmatiga yuqori tajribaga ega bo'lgan tashkilotlarni jalb etish maqsadida "CC" va undan yuqori elektron reyting bahosiga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etishlari shart. Ushbu reytingdan pastroq tashkilotlarning xujjatlari qabul qilinmaydi. Ushbu reyting talablari faqatgina ushbu tanlashda ishtirok etish uchun asos bo'la oladi, biroq CC reyting bahosidan yuqoriroq reytingga ega bo'lgan tashkilotlarga xech qanday imtiyozlar berilmaydi;

g) ishtirokchi to'g'risida umumiy ma'lumot

**Ushbu talablar qat'iy xisoblanib, mazkur hujjatlar ochiq holda berilishi lozim. Taqdim etmagan tashkilotlar hujjatlari qabul qilinmaydi yoki tanlashdan chetlashtiriladi!!!**

tanlash jarayonida tashkilot raxbari ishtirok etishi shart (zarurat tug'ilganda tashkilot nomidan ishonchnoma orqali tashkilot vakili)

Tijorat taklifi qog'oz shaklida muxrlangan konvertga solingan holda taqdim etilishi hamda konvert yuzasida lot raqami, ishtirokchining STIR (INN) va yuridik manzili to'g'risida ma'lumotlar ko'rsatilishi shart.

##### **Konvert ichida taqdim etiladigan xujjatlar:**

1. Tijorat taklifi (ishlar uchun taklif qilinayotgan narx asli)

2. Ishtirokchi taklif etgan ishlarning narx jadvali (oferta)

4.3. Tanlashga quyidagi ishtirokchilar qo'yilmaydi:

- shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslari mavjud bo'lmagan;

- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa ega bo'lmagan;

- soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud bo'lgan;

- insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan;

- o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud bo'lgan;

- imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalarni (offshor zonalar) amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan hududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlariga ega bo'lmagan;

- avval universitet bilan imzolangan shartnomalar bo'yicha kelishilgan majburiyatlarni o'z muddatida bajarmagan.

4.4. Xarid komissiyasi ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatadi, agar:

- u to'g'risida Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd mavjud bo'lsa;
- unda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;
- o'ziga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari joriy etilgan bo'lsa;
- ishtirokchi xarid qilish hujjatlarining malaka, texnik va tijorat talablariga javob bermasa;

ishtirokchi davlat xaridlari jarayonida universitet tomonidan biror-bir xatti-harakatning sodir etilishiga, qaror qabul qilinishiga yoki biror-bir xarid qilish tartib-taomilining qo'llanilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida davlat buyurtmachisining yoki boshqa davlat organining istalgan hozirgi yoki sobiq mansabdor shaxsiga yoki xodimiga har qanday shakldagi haqni, ishga yollash to'g'risidagi taklifni yoxud istalgan boshqa qimmatbaho ashyoni yoki xizmatni bevosita yoxud bilvosita taklif qilsa, bersa yoki berishga rozilik bildirsa;

ishtirokchi raqobatga qarshi harakatlarni sodir etsa yoki qonunchilikni buzgan holda manfaatlar to'qnashuvini keltirib chiqarsa, shuningdek affillanganlik hollari aniqlansa.

Xarid komissiyasining ishtirokchini xarid qilish tartib-taomillarida ishtirok etishdan chetlatish to'g'risidagi qarori va buning sabablari xarid qilish tartib-taomillari haqidagi hisobotga kiritiladi hamda ular haqida tegishli ishtirokchiga darhol xabar beriladi.

## **5. Tanlash doirasida hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash**

1. 1. Tushgan takliflarning ko'rib chiqilishi, ularning xarid komissiyasi a'zolari tomonidan baholanishi to'g'risidagi axborot maxfly hisoblanadi.

# **11. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARI**

## **6. Tanlash hujjatining tarkibi**

6.1. Tanlash ishtirokchisi unga berilgan tanlash hujjatini va shu bilan birga barcha ko'rsatmalar, shakllar, shartlar va texnik tafsilotlarni to'liq o'rganib chiqishi shart.

6.2. Ishtirokchilarning takliflari tanlash hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi.

6.3. Tanlash hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan barcha talab qilingan ma'lumotlarni bermaslik yoki taklifning tanlash hujjatlari talablariga to'g'ri kelmasligi, taklifning qabul qilinmasligiga olib keladi.

## **7. Tanlash hujjatlariga aniqlik kiritish**

7.1. Hujjatlarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar Ishtirokchi tanlash hujjatlariga qandaydir aniqlik kiritish uchun xarid komissiyasiga yozma ravishda murojaat qilishlari mumkin:

7.2. Xarid komissiyasi talabgorning so'roviga ko'ra Tanlash takliflarini taqdim etishning so'ngi muddatidan kamida 3 kun oldin so'rov manbasini ko'rsatmagan holda tanlashning barcha ishtirokchilariga majburiy tartibda javob yuborib, tanlash hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq savolga yozma javob berishi shart.

## **8. Tanlash hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish**

1. 1. Takliflarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar kamida 2 kun oldin xarid komissiyasining qaroriga muvofiq talabgorlarga ma'lum qilishga haqlidir.

## **111. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARINI TAYYORLANISHI**

### **9. Tanlashda qatnashish harajatlari**

9.1. Tanlashda ishtirok etish va tanlash hujjatini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar ishtirokchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

9.2. Narx taklifida ko'rsatilgan narx tanlash taklifi narxi hisoblanadi.

9.3. Tanlash taklifi narxi milliy valyuta - so'mda to'lanishi lozim.

9.4. Mahsulot (xizmat, ish) narxi taklifga barcha harajatlari, ya'ni soliq hamda byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar kiritiladi.

9.5. Ishtirokchi tomonidan belgilangan narxlar mahsulotni yetkazib berish (xizmatlarni ko'rsatish) majburiyatlarini ohiriga yetkazilmagunga qadar o'zgartirilmaydi (xarid komissiyasining narxlarni tushirish bo'yicha muzokaralar olib borish natijasida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin).

9.6. Narxlarning oshishiga qarab o'zgartiriladigan narxlarni ko'zda tutuvchi tanlash takliflari istalgan bosqichda, tanlash talablariga javob bermaydi deb qaraladi va xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi rad etiladi.

### **10. Tanlashda qo'llaniladigan til**

10.1. Ishtirokchilar tomonidan berilayotgan takliflar, Buyurtmachi va ishtirokchi o'rtasidagi xatlar va barcha tegishli hujjatlar, qoida tariqasida, davlat tilida tayyorlanadi.

### **11. Tanlash taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar**

11.1. Tanlash takliflari bir asl nusxadan, faqat muhrlangan konvertida bo'lishi lozim. Xarid komissiyasi nomini va manzili ko'rsatilgan konvertida ishtirokchi uchun ko'rsatmaning 5.2-bandida keltirilgan hujjatlar solingan holda (muhrlangan tarzda) yo'llanma xat bilan birgalikda qabul qilinadi.

Konvertning yuza qismida ishtirokchining nomi, bog'lanish uchun telefon raqamlari, yuridik manzili, tanlash nomi, loti va STIR raqami ko'rsatiladi.

Konvertida mazkur ishtirokchiga ko'rsatmaning 5.2-bandida ko'rsatilan ma'lumotlar bo'lishi lozim.

11.2. Xarid komissiyasi lozim bo'lganda tanlash ishtirokchilaridan taqdim etilgan tanlash takliflarini tasdiqlash uchun qo'shimcha yoki boshqa ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

### **12. Taklif shakli va narx jadvali shakllari bo'yicha tushuntirish**

12.1. Ishtirokchi tanlash taklifini qat'iy ravishda mazkur tanlash hujjatining II bobidagi shakllar asosida taqdim etishi lozim.

12.2. Tanlash taklifi shakllaridagi barcha bo'sh grafalar tanlash hujjatlari talablari asosida to'ldirilishi zarur.

12.3. Ishtirokchi taklif etilayotgan mahsulot (xizmat) uchun narx taklifini tanlash taklifi shakli asosida taqdim etishi lozim.

### **13. Muqobil takliflari**

13.1. Past texnik (funktsional) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mahsulot (xizmat) ko'rinishida berilgan tanlash takliflari ko'rib chiqilmaydi.

### **14. Tanlash takliflarini rasmiylashtirish va imzolash**

14.1. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi tanlash hujjatlarini imzolash vakolati bor bo'lgan o'zining vakilini tayinlashi mumkin. Vakil tomonidan imzolash uchun ishtirokchi

o'z vakiliga tegishli ishonch xati berishi lozim, ishonch xati tashkilotning vakolatga ega shaxsi tomonidan imzolangan va muhrlangan bo'lishi kerak.

Tanlash ishtirokchilarining takliflari ip bilan tikilgan, raqamlangan, muhr qo'yilgan va ishtirokchining vakolatli shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan yoki takliflarning har bir varag'i imzolangan holda taqdim etish tavsiya etiladi.

14.2. Berilgan takliflarda yozuv qatorlari orasiga qo'shib yozish uchun joy tashlanishi yoki o'chirish holatlari mavjud bo'lsa, bu taklif o'z kuchini yo'qotadi va rad etiladi.

14.3. Tanlash ishtirokchisining imzolanmagan, yelimlanmagan va muhrlanmagan konvertlari ko'rib chiqilmaydi.

14.4. Agar taklifni kiritgan tanlash ishtirokchisining taklifi Ishtirokchiga ko'rsatmaning hamda mahsulot yoki xizmat (ishlar)ning texnik talablariga mos kelmasa xarid komissiyasi taklifni rad etadi.

14.5. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan hujjatlarning taqdim etilishi hujjatlarni noto'g'ri tayyorlangani yoki taqdim etilganidan dalolat beradi.

Bunday holatlarda xarid komissiyasi yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi ishtirok etayotgan vakillariga ma'lum qilinadi.

Bunda xarid komissiyasi va buyurtmachi hujjatlarning but saqlanishi va to'liq bo'lishiga javobgar hisoblanmaydi. Shu sababli ishtirokchi kelgusida ushbu masala yuzasidan shikoyat qilish huquqiga ega emas.

#### **IV BOB. YETKAZIB BERILADIGAN MAHSULOTLARGA VA KO'RSATILADIGAN ISHLARGA NARX VA TEXNIK TALABLAR**

##### **15. Umumiy ma'lumotlar**

15.1. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining Ohangaron shahrida joylashgan "Energetika va mashinasozlik fakul'teti" binosini joriy ta'mirlash

15.2. Buyurtmachi: Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

15.3. Yetkazib beruvchi: Buyurtmachi tomonidan o'tkazilgan eng yaxshi taklifni tanlash natijalariga ko'ra yetkazib beruvchi aniqlanadi.

15.4. Ishlarni bajarish muddati: **shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab 20 ish kuni**

15.5. Moliyalashtirish manbalari: Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialining-**BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARI** hisobidan

#### **V. TANLASH TAKLIFINING TOPSHIRILISHI VA OCHILISHI**

##### **16. Tanlash takliflarini muhrlash va konvertlarni belgilash**

16.1. Tanlash ishtirokchisi tanlash takliflarini mazkur tanlash hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilgan holda elektron tartibda topshirishi shart.

##### **17. Tanlash takliflarini topshirishning oxirgi muddati**

17.1. Ishtirokchilarning tanlash takliflari Etender.uzex.uz elektron savdo platformasida e'lon berilgan kundan boshlab 5 kalendar kundan kechikmasdan xarid komissiyasiga topshiriladi (shanba, yakshanba dam olish kuni etib belgilanadi).

17.2. Tanlash takliflarini topshirishning oxirgi muddati hech qanday sharoitda ko'chirilmaydi (9.1-bandida eslatilgan tasodifiy holatlardan tashqari).

17.3. Tanlash takliflarini topshirishning oxirgi muddatiga 1 kun qolgunga qadar tanlash ishtirokchisi o'z takliflarini qaytarib olishi yoki taklifga o'zgartirish kiritishi mumkin.



17.4. Tanlash ishtirokchisi tomonidan tanlash hujjatlarida talab etilgan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmasligi yoki mazkur tanlash hujjatlari talablariga javob bermaydigan takliflar rad etiladi.

## **VI. TANLASH TAKLIFLARINI G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI**

### **18. Tanlash takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash**

18.1. Xarid komissiyasi tanlash takliflarini texnik, tashkiliy-moliyaviy va tijorat jihatdan baholash xarid komissiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

18.2. Tanlash takliflarini baholash bir bosqichdan iborat bo'lib, Tanlash hujjatlarining I-bobining 5-bandiga muvofiq amalga oshiriladi.

18.3. Tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan mezonlar asosida shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlarini taklif qilgan tanlash ishtirokchisi g'olib deb topiladi.

18.4. Tanlashda g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi.

18.5. Tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi axborot ishonchsiz ekanligi aniqlangan taqdirda, xarid komissiyasi bunday ishtirokchini xarid qilish tartib-taomilining istalgan bosqichida tanlashda ishtirok etishdan chetlatishga haqli.

18.6. Tanlash takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasi tanlash ishtirokchisidan uning tanlash takliflari borasida tushuntirishlar berishini so'rashi mumkin.

18.7. Ishtirokchilarning tijorat takliflarini barcha uchun teng shartlar asosida o'tkazish maqsadida ularning tanlash takliflarini baholashda, sifatli mahsulot yetkazib berishdan (xizmat ko'rsatishdan, ish bajarishdan) iborat bo'lgan tanlash takliflari bo'yicha qonunchilik asosida qo'shimcha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tomonidan soliq summasi kiritib hisob qilinadi.

18.8. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini moliyaviy baholash, tijorat takliflarni baholash mezonlari asosida aniqlanadi.

18.9. Tanlash takliflarini qarab chiqish muddati 10 kundan oshmaydi.

18.10. Yakun chiqarish va tanlashning g'olibi to'g'risidagi qaror xarid komissiyasi tomonidan qabul qilinadi. G'olibni tanlashda xarid komissiyasi a'zolarining yakka tartibdagi xulosasiga asoslaniladi. Qaror xarid komissiyasi a'zolari umumiy sonining oddiy, ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Xarid komissiyalari a'zolarida ishtirokchilar bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'tarilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda bayonnomada qayd etiladi.

18.11. Xarid komissiyasi tanlash hujjatlari shartlariga mos kelmaydigan har qanday tanlash takliflarini qabul qilish yoki rad etish huquqini o'zida olib qoladi.

18.12. Xarid komissiyasining so'rovlariga javob bera olmaydigan ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan (berilgan) har qanday tushuntirishlar ko'rib chiqilmaydi.

Bayonnomaga yig'ilishda ishtirok etgan komissiya raisi va a'zolar tomonidan imzolanishi kerak.

18.13. Tanlash tashkilotchisi tanlash g'olibiga tanlash yakunlangandan keyin uch kundan kechikmay bildirishnoma beradi va yakunlarini Respublika tovar-xom ashyo birjasining [www.dxarid.uzex.uz](http://www.dxarid.uzex.uz) maxsus portalida e'lon qiladi.

18.14. Muhokama uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin kelib tushgan e'tirozlar xarid komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib

tushganda, xarid komissiyasi e'tirozlarni ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

18.15. Davlat buyurtmachisi tomonidan xarid komissiyasiga taqdim etilgan muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida xarid komissiyasining tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiriladi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

## **19. Takliflarning mos kelmasligi**

19.1. Tanlash hujjatlarini tekshirish chog'ida aniqlangan arifmetik xatolar mavjud bo'lgan taqdirda xarid komissiyasi:

ishtirokchiga tanlash taklifiga tuzatish kiritish imkoniyatini berishi;

takliflarni baholashda, tovar (xizmat, ish) narxi bilan birlik narxi va sonini ko'paytirish natijasida olingan yakuniy narx o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, tovar (xizmat, ish) narxi ustunlik qiladigan, umumiy narxga tuzatish kiritiladigan qaror qabul qilishi mumkin.

Agar so'zlar bilan yozilgan summa (narx) bilan raqamda ko'rsatilgan summa (narx) o'rtasida nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, u holda so'zlar bilan yozilgan summa (narx) ustunlik qiladi.

19.2. Agarda ishtirokchi xatolarni to'g'rilashdan bosh tortsa, uning tanlash taklifi xarid komissiyasining qarori bilan chetlashtiriladi.

19.3. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchi huquqi boshqa yuridik shaxsga plateo'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

19.4. Tanlash quyidagi hollarda bo'lib o'tmagan deb e'lon qilinadi:

tanlashda ishtirok etish uchun takliflarni taqdim etish muddati tugagan paytda faqat bitta taklif taqdim etilgan yoki birorta ham taklif taqdim etilmagan bo'lsa;

barcha tanlash takliflari tanlash hujjatlariga qo'yiladigan talablarga muvofiq bo'lmasa;

barcha tanlash takliflarida tanlash hujjatlari shartlari bilan talab qilinadigan hujjatlar mavjud bo'lmasa;

barcha ishtirokchilarning taklif etgan narxlari ishlarning boshlang'ich qiymatidan ancha yuqori bo'lsa;

tanlash hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga mos keladigan kamida ikkita taklif olinmagan bo'lsa.

19.5. Tanlashning bo'lib o'tmagan, deb e'lon qilinishi tanlash ishtirokchilaridan biron-birining mulkiy yoki boshqa javobgarligiga olib kelmaydi.

## **VII. SHARTNOMANI RASMIYLASHTIRISH**

### **20. Shartnomani rasmiylashtirish**

20.1. Tanlash natijalariga doir shartnoma tanlash hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan taklifda nazarda tutilgan shartlar asosida tuziladi.

20.2. Tanlashda g'olib chiqqan ishtirokchi buyurtmachi bilan shartnoma tuzadi.

Tanlash g'olibi - takliflarni baholash yakunlari bo'yicha tanlashda shartnomani bajarish bo'yicha eng yaxshi taklif bildirgan ishtirokchi.

Zahiradagi g'olib - tanlash g'olibidan keyingi o'rinda turgan eng yaxshi taklif qilgan ishtirokchi.

20.3. Buyurtmachi va tanlash g'oliblari o'rtasidagi shartnoma tanlash g'oliblari to'g'risida respublika tovar-xom ashyo birjasining [www.dxarid.uz](http://www.dxarid.uz) maxsus portalida e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddat ichida tuziladi.

20.4. G'olib shartnoma tuzishni rad etgan taqdirda unga zakalat summasi qaytarib berilmaydi. Xarid komissiyasi tomonidan zaxiradagi g'olib aniqlangan bo'lsa, shartnoma

tuzish va unga doir majburiyatlarni bajarish huquqi zaxiradagi g'olibga o'tadi. Bunda zaxiradagi g'olib g'olib tomonidan taklif etilgan narx bo'yicha shartnoma tuzadi yoki shartnoma tuzishni rad etishi mumkin.

20.5. Tanlash natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot davlat buyurtmachisi tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan kundan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

## **21. Shartnomani imzolash**

21.1. Agar ikki ish kuni ichida tanlash ishtirokchilari tomonidan tanlash o'tkazish natijalari bo'yicha e'tirozlar kelib tushmagan bo'lsa, xarid komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan ishtirokchi o'rtasida shartnoma tuziladi.

21.2. G'olib deb topilgan ishtirokchi shartnomani bajarish kafolatini muddatda bera olmasa keyingi eng ko'p ball to'plagan zaxiradagi ishtirokchi bilan shartnoma imzolanadi.

21.3. Tanlash g'olibi miqdor, sifat hamda texnik ko'rsatkichlari bo'yicha shartnoma talablarini bajarmasa qonun doirasida (yoki shartnoma talablariga asosan) javobgarlikka tortiladi.

# SHARTNOMA NAMUNASI

№ \_\_\_\_\_

**Toshkent vil.**

**2022 yil “ \_\_\_ ”**

Keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladigan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali nomidan filial direktori A.Samadov bir tomondan va keyingi o‘rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan ma’suliyati cheklangan jamiyati nomidan Nizom asosida ish ko‘ruvchi raxbari, ikkinchi tomondan mazkur pudrat shartnomasini tuzib imzoladilar.

## **I. Shartnoma predmeti**

1. Pudratchi mazkur shartnomaning 1-ilovasida keltirilgan texnik shartlarga muvofiq ishlarni bajarish majburiyatlarini, Buyurtmachi esa Pudratchiga bajarilgan ishlarni qabul qilish va to‘lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

## **II. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati**

2.1. Mazkur shartnomaning -ilovasiga muvofiq Pudratchi tomonidan bajariladigan, eng yaxshi takliflarni tanlash savdosi natijasida aniqlanib, Xarid komissiyasining qarori (2021 yil avgustdagi “”-sonli bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymatining barcha soliqlar shu jumladan QQS bilan ishlarni bajarish qiymati so‘mni tashkil etadi.

2.2. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

ishlar qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda;

ishlarni bajarish bir yildan ortiqqa o‘zgartirilganda.

2.3. Ishlarni bajarish muddati bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.4. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, sanab o‘tilgan o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

## **III. Pudratchining majburiyatlari**

3.1. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning I bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

bajariladigan ishlar tavakkalchiligini sug‘urta qilish;

mazkur shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish uchun o‘ziga tegishli texnika va asbob-uskunalar, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, materiallar, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik inshootlardan bo‘shatish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

3.2. Pudratchi mazkur shartnoma bo‘yicha barcha ishlarning o‘z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi uchun Buyurtmachi oldida to‘liq mulkiy javob beradi.

## **IV. Buyurtmachining majburiyatlari**

4.1. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

ishlar bajarilishi ustidan doimiy nazoratni va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta’minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o‘n kun muddatda ko‘rib chiqish va qaror qabul

qilish;

ushbu shartnoma shartlariga muvofiq bajarilgan ishlarni haqini Pudratchiga to'lash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

#### **V. Ishlarni bajarish muddatlari**

5.1. Mazkur shartnoma g'aznachilik organida ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2021 yil 31 dekabrqa qadar amal qiladi.

5.2. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

#### **VI. To'lovlar va hisob-kitoblari**

6.1. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma buyicha ishlarni umumiy, shartnomaviy-joriy kiymatining 30 foizi so'm miqdorida mablag'ni oldindan o'tkazib beradi.

6.2. Shartnoma bo'yicha ishlarni bajarishning umumiy qiymatining 70 foizi - so'm to'lov Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob ishlar bajarilgandan keyin 10 (o'n) kun ichida amalga oshiradi.

6.3. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

#### **VII. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

7.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

7.2. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

7.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

#### **VIII. Shartnomani bekor qilish**

8.1. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin ishlarni bajarishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari ishlarni bajarish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

8.2. Pudratchi:

ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

8.3. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan ishlarni 5 (besh) kun muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

8.4. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

8.5. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

8.6. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **IX. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

9.1. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

9.2. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.3. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

9.4. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

9.5. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Nizolarni hal etish tartibi

9.8. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarning yuridik manzili bo'yicha iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

### **X. Alohida shartlar**

10.1. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning

o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

10.2. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

10.3. **Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va'da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya'ni Buyurtmachi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir yetishi yoki sodir yetmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qiymatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.**

10.4. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Buyurtmachi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir yetishga majburlashdan iborat faktlar duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

“1008” ishonch telefoni; Telegram-kanali («@anticorbot»); Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

10.5. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

## **XI. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:**

**Buyurtmachi**

**Pudratchi**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent  
davlat texnika universiteti Olmaliq filiali  
Tashkent vil. Olmaliq shahar,  
M.Ulug'bek kochasi, 45 uy.  
h/r 400910860274047094100079001  
MOLIYA VAZIRLIGI G'AZNACHILIGI  
AMALIYOT BOSHQARMASI  
MFO 00014  
INN 207260197**